



## KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI ROL VA MOLIALASHTIRISH USULLARI

### THE ROLE OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS IN ENHANCING INVESTMENT ACTIVITY IN SMALL AND MEDIUM ENTERPRISES AND THEIR FINANCING METHODS

<sup>1</sup>Gafurova Umida  
Fatixovna

<sup>1</sup>Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi «O'zbekiston  
iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari»  
ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil izlanuvchisi

#### Annotatsiya Abstract

*Uzb.* - Mazkur maqolada kichik va o'rta biznes subyektlarida investitsion faollikni oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida davlat-xususiy sheriklikning nazariy asoslari, moliyalashtirish usullari hamda uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri o'rganildi. Shuningdek, xorijiy va milliy tajriba asosida ushbu mexanizmlarning kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyatiga ta'siri baholandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik investitsion resurslarga kirishni kengaytirish, xavflarni kamaytirish va biznes muhitini yaxshilash orqali investitsion faollikni oshirishda muhim vosita ekanligi asoslab berildi.

*Eng.* - This article examines the role of public-private partnership in increasing the investment activity of small and medium-sized enterprises. The study analyzes the theoretical foundations of public-private partnership, financing mechanisms, and their impact on economic efficiency. Additionally, based on international and national experience, the influence of these mechanisms on the development of small and medium-sized enterprises is evaluated. The results show that public-private partnership is an important tool for expanding access to investment resources, reducing risks, and improving the business environment.

#### Kalit so'zlar: Keywords:

❖ davlat-xususiy sheriklik, kichik va o'rta biznes, investitsion faollik, moliyalashtirish usullari, infratuzilma, innovatsiya, iqtisodiy o'sish.  
❖ public-private partnership, small and medium-sized enterprises (SMEs), investment activity, financing methods, infrastructure, innovation, economic growth.

#### Kirish.

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik va o'rta biznes subyektlari iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash hamda innovatsion rivojlanishning muhim drayveri sifatida e'tirof etilmoqda [1]. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda ushbu sektorning barqaror rivojlanishi ko'pincha moliyaviy resurslar yetishmasligi va

investitsion faollikning pastligi bilan cheklanadi. Shu sababli davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari iqtisodiyotni moliyalashtirishning muqobil va samarali vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik mexanizmi bo'lib, u investitsiya loyihalarini amalga oshirishda

risklarni taqsimlash, moliyaviy resurslarni jalb qilish va infratuzilma hamda xizmatlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun esa ushbu model yangi moliyalashtirish manbalariga kirish imkonini kengaytiradi va investitsion faollikni oshirishga zamin yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, davlat-xususiy sheriklikning iqtisodiy mexanizmlari va moliyalashtirish usullarini chuqur tahlil qilish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda davlat-xususiy sheriklik va kichik hamda o'rta biznes subyektlarining investitsion faolligi masalasi keng tadqiq etilgan.

E. R. Yescombe davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish tamoyillarini tahlil qilib, xususiy sektor ishtiroki davlatning investitsion yukini kamaytirishini asoslaydi. Unga ko'ra, samarali tuzilgan sheriklik mexanizmi risklarni to'g'ri taqsimlash orqali loyihaning iqtisodiy samaradorligini oshiradi [2]. Fikrimizcha, ushbu yondashuv kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga kirishini yengillashtiradi va investitsion faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Grimsey va Lewis davlat-xususiy sheriklikni uzoq muddatli kontraktlar asosida tahlil qilib, bu model infratuzilma va biznes loyihalarida barqarorlik hamda samaradorlikni ta'minlashini ko'rsatadi [3]. Fikrimizcha, uzoq muddatli va kafolatlangan hamkorlik kichik va o'rta biznes subyektlari uchun barqaror investitsiya muhitini shakllantiradi.

Jahon banki tadqiqotlarida davlat-xususiy sheriklik rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsion bo'shliqni kamaytirishning muhim vositasi sifatida baholanadi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishda ushbu mexanizm infratuzilma sifati va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi [4]. Fikrimizcha, xalqaro moliyaviy institutlar ishtiroki kichik va o'rta biznes subyektlarining investitsion imkoniyatlarini kengaytiradi.

OECD tadqiqotlarida davlat-xususiy sheriklik mexanizmining institutsional sifati investitsion muhitga bevosita ta'sir ko'rsatishi va kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytirishi ta'kidlanadi [5]. Fikrimizcha, institutsional sifating yaxshilanishi kichik va o'rta biznes subyektlari uchun barqaror va ishonchli investitsion muhit yaratadi.

Antonio Estache infratuzilma iqtisodiyoti doirasida davlat-xususiy sheriklik samaradorligi davlat boshqaruvi sifati va institutsional nazorat darajasi bilan chambarchas bog'liqligini asoslaydi [6]. Fikrimizcha, samarali boshqaruv mexanizmlarisiz investitsion loyihalarning kutilgan natijaga erishishi qiyinlashadi.

Hodge va Greve davlat-xususiy sheriklikni faqat moliyaviy instrument emas, balki boshqaruv innovatsiyasi sifatida talqin qilib, iqtisodiyotda yangi hamkorlik modelini shakllantirishini ta'kidlaydi [7]. Fikrimizcha, bu yondashuv kichik va o'rta biznes subyektlari uchun yangi boshqaruv va investitsiya imkoniyatlarini ochadi.

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda ham ushbu yo'nalishda muhim ilmiy qarashlar mavjud. A. O'lmasov va Sh. Shodmonov kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy o'sishdagi rolini tahlil qilib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarurligini asoslaydi [8]. Fikrimizcha, davlat qo'llab-quvvatlovi kichik va o'rta biznes subyektlarining investitsion salohiyatini oshiradi.

A. Vahobov investitsiya siyosatini o'rganib, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari investitsiya resurslarini diversifikatsiya qilishga xizmat qilishini qayd etadi [9]. Fikrimizcha, bu yondashuv iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

S. G'ulomov innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik va o'rta biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun moliyalashtirish manbalarini kengaytirish zarurligini asoslaydi [10]. Fikrimizcha, moliyalashtirish manbalarining

kengayishi innovatsion faollik va investitsion faollikni bevosita kuchaytiradi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Davlat-xususiy sheriklik iqtisodiy nazariyada davlat va xususiy sektor o'rtasida resurslar, majburiyatlar hamda xavf-xatarlarni o'zaro taqsimlashga asoslangan hamkorlik shakli sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv institutsional iqtisodiyot nazariyasiga tayangan holda shakllanib, davlatning iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokini optimallashtirish va xususiy sektor samaradorligini oshirishni maqsad qiladi. Davlat-xususiy sheriklik orqali davlat o'z zimmasidagi ayrim investitsiya majburiyatlarini xususiy sektor bilan bo'lishadi, natijada byudjet yuklamasi kamayadi va investitsiya jarayonlari tezlashadi.

Investitsiya nazariyasiga ko'ra, kichik va o'rta biznes subyektlarining faolligi asosan moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, kredit tizimining rivojlanganligi, iqtisodiy muhit barqarorligi va davlat qo'llab-quvvatlash darajasi bilan belgilanadi. Mazkur sharoitlarda davlat-xususiy sheriklik mexanizmi muhim vosita bo'lib, u orqali tadbirkorlik subyektlari uzoq muddatli va nisbatan arzon moliyaviy manbalarga ega bo'lishi mumkin. Ayniqsa, davlat kafolatlari asosida kreditlash tizimi kichik biznes uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazariy jihatdan davlat-xususiy sheriklikning moliyalashtirish usullari bir nechta asosiy shakllarda namoyon bo'ladi. Bular qatoriga davlat tomonidan kafolatlangan kreditlar, subsidiyalar, grantlar, aralash

moliyalashtirish (ya'ni davlat va xususiy kapitalni birlashtirish), shuningdek infratuzilma loyihalarida xususiy sektor ishtiroki kiradi. Ushbu mexanizmlar orqali investitsiya xavflari kamaytiriladi, loyihalarning iqtisodiy samaradorligi oshiriladi va kichik hamda o'rta biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyati kengayadi.

Shuningdek, tranzaksion xarajatlar nazariyasiga muvofiq, davlat-xususiy sheriklik loyihalari orqali kelishuv va boshqaruv xarajatlari optimallashtiriladi. Bu esa resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Natijada, investitsiya loyihalarining amalga oshirish muddati qisqaradi va ularning iqtisodiy qaytimi oshadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalangan mamlakatlarda kichik va o'rta biznes subyektlarining investitsion faolligi yuqori darajada shakllangan. Xususan, Buyuk Britaniya tajribasida davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan infratuzilma loyihalari kichik biznes subyektlari uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratgan. Ushbu loyihalarda kichik korxonalar subpudratchi sifatida ishtirok etib, o'z faoliyatini kengaytirgan va investitsion salohiyatini oshirgan.

Janubiy Koreya tajribasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan sheriklik mexanizmlari orqali kichik va o'rta biznes subyektlariga imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va innovatsion grantlar ajratilgan. Bu esa yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning rivojlanishiga hamda eksport salohiyatining oshishiga olib kelgan. Natijada, kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylangan.

O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Energetika, transport, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida yirik investitsiya loyihalari yo'lga qo'yildi. Biroq kichik va o'rta biznes subyektlarining ushbu loyihalardagi ishtiroki hali yetarli

darajada emas. Bunga asosiy sabab sifatida moliyaviy resurslarga kirishning cheklanganligi, kredit foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi va institutsional muhitdagi ayrim kamchiliklarni ko'rsatish mumkin.

Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik kichik va o'rta biznes subyektlarining investitsion faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu mexanizm orqali tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati kengayadi, investitsiya xavflari kamayadi va yangi bozor imkoniyatlari yaratiladi.

Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik loyihalari infratuzilmaning rivojlanishiga

xizmat qilib, umumiy biznes muhitini yaxshilaydi. Bu esa kichik va o'rta biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshiradi va ularning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini kuchaytiradi. Ayniqsa, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash orqali ushbu sektorning samaradorligi yanada ortadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, moliyalashtirish usullarini diversifikatsiya qilish hamda institutsional muhitni takomillashtirish kichik va o'rta biznes subyektlarining investitsion faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**1-jadval**

**Davlat-xususiy sheriklikning kichik va o'rta biznes subyektlariga ta'siri [11]**

<i>Yo'nalish</i>	<i>Ta'sir mexanizmi</i>	<i>Natija</i>
<i>Moliyalashtirish</i>	<i>Kredit, subsidiya, grantlar</i>	<i>Kapitalga kirish osonlashadi</i>
<i>Risklarni kamaytirish</i>	<i>Davlat kafolatlari</i>	<i>Investitsion xavf pasayadi</i>
<i>Infratuzilma</i>	<i>Yo'l, energetika, logistika</i>	<i>Biznes imkoniyatlari kengayadi</i>
<i>Innovatsiya</i>	<i>Qo'llab-quvvatlash dasturlari</i>	<i>Raqobatbardoshlik oshadi</i>

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, moliyalashtirish yo'nalishida davlat-xususiy sheriklik kreditlar, subsidiyalar va grantlar orqali kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga kirishini osonlashtiradi. Bu holat ayniqsa boshlang'ich kapital yetishmovchiligi muammosini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada tadbirkorlik subyektlari yangi loyihalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi va investitsion faollik oshadi.

Risklarni kamaytirish yo'nalishida davlat kafolatlari va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari investitsiya xavfini sezilarli darajada pasaytiradi. Bu esa xususiy investorlarning faolroq ishtirok etishiga olib keladi. Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun xavflarning kamayishi ularning uzoq muddatli loyihalarga kirishishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Infratuzilmani rivojlantirish davlat-xususiy sheriklikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yo'l, energetika va logistika tizimlarining takomillashuvi biznes yuritish xarajatlarini kamaytiradi va yangi bozor imkoniyatlarini yaratadi. Natijada kichik va o'rta biznes subyektlari o'z faoliyatini kengaytiradi va samaradorlik oshadi.

Innovatsiya yo'nalishida esa davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari, grantlar va texnologik loyihalar kichik va o'rta biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshiradi. Innovatsion faoliyatning rivojlanishi esa iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari kompleks ta'sirga ega bo'lib, u faqat moliyalashtirish bilan cheklanmaydi, balki biznes muhitini yaxshilash, xavflarni

kamaytirish va innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish orqali ham kichik va o'rta biznes subyektlarining investitsion faolligini oshiradi. Bu jarayon o'zaro bog'liq bosqichlardan iborat bo'lib, har bir omil boshqasini to'ldiradi va yakuniy natijada iqtisodiy samaradorlikka olib keladi.

Oldingi jadval natijalariga tayangan holda aytish mumkinki, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining samaradorligi bevosita ularning qanday moliyalashtirish shakllari bilan uyg'unlashganligiga bog'liq. Ya'ni,

faqatgina kredit yoki subsidiya berish bilan cheklanib qolmasdan, ularni kompleks tarzda qo'llash kichik va o'rta biznes subyektlarining investitsion faolligini yanada oshiradi.

Shuningdek, jadvalda ko'rsatilgan yo'nalishlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, birining rivojlanishi boshqasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, infratuzilmaning yaxshilanishi moliyalashtirish samaradorligini oshirsa, risklarning kamayishi investitsiya hajmining ortishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi.

2-jadval

**Davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish usullarining tahliliy jadvali [11]**


<i>Moliyalashtirish usuli</i>	<i>Mazmuni</i>	<i>Afzalligi</i>	<i>Kichik va o'rta biznesga ta'siri</i>
<i>Davlat kafolatli kreditlar</i>	<i>Bank kreditlari davlat kafolati bilan beriladi</i>	<i>Risk kamayadi</i>	<i>Kredit olish osonlashadi</i>
<i>Subsidiyalar</i>	<i>Davlat tomonidan xarajatlarning bir qismi qoplanadi</i>	<i>Xarajatlar kamayadi</i>	<i>Rentabellik oshadi</i>
<i>Grantlar</i>	<i>Qaytarilmaydigan mablag'lar ajratiladi</i>	<i>Moliyaviy bosim yo'q</i>	<i>Yangi biznes boshlash osonlashadi</i>
<i>Aralash moliyalashtirish</i>	<i>Davlat va xususiy kapital birlashtiriladi</i>	<i>Resurslar ko'payadi</i>	<i>Yirik loyihalarda ishtirok imkoniyati</i>
<i>Lizing va infratuzilma qo'llovi</i>	<i>Asbob-uskunalar va infratuzilma ta'minoti</i>	<i>Boshlang'ich xarajat kamayadi</i>	<i>Ishlab chiqarish tez yo'lga qo'yiladi</i>

Mazkur jadvaldan ko'rinadiki, davlat-xususiy sheriklik doirasida qo'llaniladigan moliyalashtirish usullari kichik va o'rta biznes subyektlari uchun keng ko'lamli iqtisodiy imkoniyatlarni shakllantiradi va ularning investitsion faolligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, davlat kafolati asosida ajratiladigan kreditlar hamda turli subsidiyalar tadbirkorlik faoliyatining dastlabki bosqichida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, risklarni kamaytirish va biznesni yo'lga qo'yishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, grant mablag'lari innovatsion g'oyalar, startap loyihalar va yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashda samarali

instrument bo'lib xizmat qiladi. Ular nafaqat yangi texnologiyalarni joriy etish, balki ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Aralash moliyalashtirish modeli esa (blended finance) eng samarali mexanizmlardan biri sifatida ajralib turadi. Ushbu yondashuv davlat va xususiy sektor resurslarini birlashtirish orqali yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkonini yaratadi hamda kichik biznes subyektlarining ushbu loyihalardagi ishtirokini kengaytiradi. Natijada kapitalga kirish imkoniyatlari yaxshilanadi va investitsion risklar taqsimlanadi.



**1-rasm. Davlat-xususiy sheriklik ta'sirining kompleks modeli [11]**

Mazkur infografika davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kichik va o'rtta biznes subyektlariga ko'rsatadigan ta'sirini kompleks tizim sifatida ifodalaydi. Unda moliyalashtirish asosiy boshlang'ich omil sifatida namoyon bo'lib, u kapitalga kirishni kengaytiradi, xarajatlarni kamaytiradi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Ushbu omillar birgalikda investitsiya faolligining oshishiga olib keladi.

Keyingi bosqichda investitsiya faolligi risklarning kamayishi, infratuzilmaning rivojlanishi va innovatsion faoliyatning kuchayishiga xizmat qiladi. Bu esa ishlab chiqarish hajmining ortishi, yangi texnologiyalarning joriy etilishi va investorlar faolligining oshishiga olib keladi.

Yakuniy bosqichda esa biznes samaradorligi oshib, raqobatbardoshlik kuchayadi, eksport hajmi ortadi va yangi ish o'rinlari yaratiladi. Natijada iqtisodiy o'sish ta'minlanadi. Ushbu model davlat-xususiy

shiriklikning ko'p bosqichli va o'zaro bog'liq iqtisodiy mexanizm ekanligini ko'rsatadi.

Yuqorida olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari kichik va o'rtta biznes subyektlarining investitsion faolligini oshirishda tizimli va ko'p qirrali ta'sirga ega. Ushbu mexanizm nafaqat moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytiradi, balki investitsiya jarayonida yuzaga keladigan xavf-xatarlarni kamaytirish, infratuzilmani rivojlantirish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish orqali ham iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, davlat-xususiy sheriklikning samaradorligi uning qanday tashkil etilganligi, ya'ni institutsional muhit sifati, huquqiy asoslarning mustahkamligi va moliyalashtirish mexanizmlarining xilma-xilligi bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, davlat tomonidan kafolatlangan moliyalashtirish shakllari va

qo'llab-quvvatlash dasturlari kichik va o'rta biznes subyektlarining investitsion faoliyatga jalb etilishida muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik loyihalari kichik biznes subyektlari uchun yangi bozor imkoniyatlarini yaratib, ularning yirik investitsiya loyihalarida ishtirokini ta'minlaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ushbu mexanizmlarning samaradorligi ko'proq institutsional muammolar va moliyaviy cheklovlar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish kichik va o'rta biznes subyektlarining investitsion faolligini oshirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur yo'nalishda tizimli islohotlarni amalga oshirish va samarali moliyalashtirish usullarini keng joriy etish dolzarb vazifa sifatida qaraladi.

### **Xulosa va takliflar.**

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari kichik va o'rta biznes subyektlarining investitsion faolligini oshirishda muhim iqtisodiy vosita hisoblanadi. Ushbu mexanizm orqali moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari kengayadi, investitsiya jarayonidagi xavf-xatarlar kamayadi hamda infratuzilma va biznes muhiti yaxshilanadi. Natijada kichik va o'rta biznes subyektlarining raqobatbardoshligi oshib, ularning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi kuchayadi. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik samaradorligi institutsional muhit sifati, huquqiy bazaning mukammalligi va moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liq ekanligi asoslandi.

Birinchidan, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun davlat kafolatlari asosida imtiyozli kreditlash tizimini kengaytirish zarur.

Mazkur choralar orqali tadbirkorlik subyektlarining bank kreditlariga kirish imkoniyati sezilarli darajada yaxshilanadi. Ayniqsa, boshlang'ich bosqichdagi korxonalar uchun garov ta'minoti yetishmasligi muammosi davlat kafolatlari orqali hal etilishi mumkin. Natijada investitsion loyihalarni moliyalashtirish osonlashadi va biznes faoliyatining kengayishi ta'minlanadi.

Ikkinchidan, davlat-xususiy sheriklik loyihalarida kichik va o'rta biznes subyektlarining ishtirokini kengaytirish lozim. Buning uchun subpudratchilik tizimini rivojlantirish, kichik biznes uchun alohida kvotalar ajratish hamda davlat xaridlari va tender jarayonlarini soddalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu chora-tadbirlar kichik biznes subyektlarining yirik loyihalarda ishtirokini ta'minlab, ularning investitsion tajribasini oshiradi.

Uchinchidan, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarur. Xususan, grantlar, subsidiyalar, aralash moliyalashtirish va venchur kapital kabi zamonaviy moliyaviy instrumentlarni keng joriy etish kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshiradi. Bu esa nafaqat mavjud loyihalarni rivojlantirish, balki yangi innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkonini ham yaratadi.

To'rtinchidan, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish muhimdir. Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun ilmiy-tadqiqot ishlari, yangi texnologiyalarni joriy etish va startap loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan maxsus dasturlarni kengaytirish zarur. Bu esa iqtisodiyotning yuqori qo'shilgan qiymatga ega tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, davlat-xususiy sheriklik tizimining huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirish lozim. Xususan, qonunchilik bazasini yanada mustahkamlash, shaffoflikni ta'minlash, korrupsion holatlarning oldini olish va boshqaruv samaradorligini oshirish orqali

ushbu mexanizmning ishonchligini kuchaytirish mumkin. Bu esa investorlar ishonchini oshirib, investitsiya oqimini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Yakuniy jihatdan, yuqoridagi takliflarning kompleks tarzda amalga

oshirilishi kichik va o'rta biznes subyektlarining investitsion faolligini oshirish bilan birga, mamlakat iqtisodiyotining barqaror va izchil rivojlanishiga zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. World Bank – SME development reports. [www.worldbank.com](http://www.worldbank.com)
2. Yescombe, E. R. (2011). *Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance*.
3. Grimsey, D., & Lewis, M. K. (2004). *Public Private Partnerships: The Worldwide Revolution in Infrastructure Provision*.
4. World Bank. *Public-Private Partnerships Reference Guide*.
5. OECD. *Public governance of public-private partnerships*.
6. Estache, A. *Infrastructure economics and PPP*.
7. Hodge, G., & Greve, C. *Public-Private Partnerships performance review*.
8. O'lmasov, A., Shodmonov, Sh. *Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik/2020-yil*.
9. Vahobov, A. V. *Investitsiya va moliyaviy siyosat. Darslik/2012-yil*.
10. G'ulomov, S. S. *Innovatsion iqtisodiyot. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2025. – T. 58. – №. 1. – C. 189-195.*
11. *Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan shakllantirilgan.*